

XALQARO TADQIQOTLARDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH TARTIBI VA NATIJALAR TAHLILI

Tuxtasinova Munira Ibragimovna

Qo'qon DPI doktorant

Akbarova Marhabo Nurmuhamatovna

Qo'qon DPI talaba

ANNOTATSIYA

PIRLS xalqaro baholash dasturida muvaffaqiyatli ishtirok etish, bevosita ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liqdir. PIRLS xalqaro baholash dasturida ishtirok etish uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv dasturlarini yodda saqlab qolganligini, ularning kompetensiyalarini, maktabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Zero, PIRLS o'qish ta'limini takomillashtirish uchun dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini beradi. Davlatlar PIRLS dan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar:

- global miqyosida ta'lim tizimi darajasidagi yutuqlarning tendensiyalarini kuzatib borish;
- yangi yoki qayta ko'rib chiqilgan ta'lim siyosatining ta'sirini kuzatib borish;
- ta'limning zaif nuqtalarini belgilash va o'quv islohotini amalga oshirish;
- PIRLS ma'lumotlarini tadqiq va tahlil qilish orqali o'qitish va o'qishni takomillashtirish;
- adolatlilikni kuzatish yoki qo'shimcha sinflarda o'quvchilarni baholash kabi tegishli ishlarni olib borish, o'qishni va o'qitishni o'rganish.

2021-yilda O‘zbekiston PIRLS tadqiqotlarida ilk bor ishtirok etgan. Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi 4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholaydigan tadqiqot natijalarini e’lon qilganda O‘zbekiston 57 davlat orasida o‘rtacha balldan pastroq ya’ni PIRLS dasturi uchun qabul qilingan o‘rtacha 500 balldan sezilarli past 437 ballni top‘lab, 49-o‘rinni egallaganligi aniq bo‘lgan.

PIRLS tadqiqotida o‘quvchilarning dars vaqtida va maktabdan tashqari vaqtlarida o‘qishini quyidagi ikki turi baholangan:

- O‘quvchining adabiy tajribasini baholash maqsadida o‘qish;
- Ma’lumotni o‘zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o‘qish.

Tadqiqot qoidalariga muvofiq, badiiy va informatsion matnlarni o‘qiyotganda o‘qish qobiliyatining quyidagi to‘rtta guruhi baholanadi: aniq ko‘rsatilgan ma’lumotlarni topish, xulosalarni shakllantirish, ma’lumotlarni talqin va sintez qilish, mazmuni, til xususiyatlari va matn tuzilishini tahlil qilish va baholash.


Tadqiqot mualliflarni natijalarni o‘qish ko‘nikmalari darajalari bo‘yicha quyidagi 4 guruhga: past daraja — 400 ball, o‘rtacha — 475 ball, yuqori — 550 ball, rivojlangan — 625 balga bo‘lishganda, O‘zbekistonlik o‘quvchilarning 70%i quyi va 34%i o‘rtacha natijalarni qayd etishgan, o‘quvchilarning 7%i yuqori natijalarga erisha olgan, rivojlangan darajasiga erishgan o‘quvchilar esa bo‘lmagan. O‘zbekistonlik o‘quvchilarining 2021-yilda PIRLSda yuqori natijalarni qo‘lga kiritishlari uchun ularga barcha sharoitlar yaratib berilgan edi. Lekin bu tadqiqotda qatnashishi O‘zbekistonlik ta’lim oluvchilar uchun sinov bo‘lgan. Bugungi kunda maktab ta’lim oluvchilarga berilgan resurslardan unumli foydalanish va ta’lim oluvchilarni o‘qishga bo‘lgan muhabbatini kuchaytirish asosiy talablaridan biriga aylangan. Bu talablarni ijobiy amalga oshirilishi 2026-yilda o‘tkaziladigan PIRLS xalqaro baholash tadqiqotida yuqoriroq o‘rinlarni egallashga zamin hozirlaydi.

Boshlang‘ich sinflarda ta’lim samaradorligini oshirishda PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorlashda quyidagi mexanizmlarni takomillashtirish tavsiya etiladi:

- Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini PIRLS xalqaro baholash dasturi asosida o‘qitishga metodik tayyorlash (2-, 3-, 4-sinflarda);
- Umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinflarning ta’lim jarayoniga samarali pedagogik va ta’lim texnologiyalarini tatbiq etishni (1- 4-sinflarda);
- Boshlang‘ich sinflardagi ta’lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirishni (1-4 sinflarda);

Exhibit 1.1: Average Reading Achievement and Scale Score Distributions
Assessed Fourth Grade Students at the End of the School Year

Grade 4



The PIRLS achievement scale was established in 2001 based on the combined achievement distribution of all countries that participated in PIRLS 2001. To provide a point of reference for country comparisons, the scale centerpoint of 500 was located at the mean of the combined achievement distribution. The units of the scale were chosen so that 100 scale score points corresponded to the standard deviation of the distribution.

(†) Standard errors appear in parentheses. Because of rounding some results may appear inconsistent. See Appendix A.2 for population coverage notes 1, 2, and 3. See Appendix A.5 for sampling guidelines and sampling participation notes †, ‡, and ⊕.

⊕ Reservations about reliability because the percentage of students with achievement too low for estimation exceeds 15% but does not exceed 25%.

⊕ Reservations about reliability because the percentage of students with achievement too low for estimation exceeds 25%.

Issues identified in Albania's data quality led to reduced comparability and framework coverage.

South Africa continued investigating its PIRLS 2021 results at the time of publication and will deal with the findings through its national report.

SOURCE: IEA's Progress in International Reading Literacy Study - PIRLS 2021
Downloaded from <https://pirls2021.org/results>

- Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun xalqaro baholash dasturlari asosida multimediali elektron resurslar yaratish, talim sifatini baholash va xalqaro darajaga ko'tarishni;
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim darajasini xalqaro standartlar asosida baholash tizimini, o'qish savodxonligini oshiruvchi fanlarni o'qitish sifatini ko'tarishga oid tendensiyalarni amaliyotga tatbiq etish ishlarini;

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kommunikativlikni faollashtirishni muntazam amalga oshirish va uzluksiz olib borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Gulichehra Durdieva. Taraqqiyotga tayanch tashabbus. Yangi O'zbekiston 24 May 2021
2. Muslimov N.A. "Bo'lajak kasb ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish"/Monografiya.–Toshkent.:Fan, 2004-yil, 360 bet.
3. Ibragimovna, Tuhtasinova Munira. "The Importance of International Assessment Programs in Enhancement, Assessment and Development of Reading Literacy of Primary Students." Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 3.11 (2022): 133-136.
4. Shermatovna, Erkaboyeva Nigora, and Akbarov Sardor Sodiqjon O'g'li. "Conditions of inclusive education." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.7 (2022): 1-4.
5. Munira Ibragimovna Tokhtasinova, Dilnoza Murodovna Sodirova, 2022/12/18, INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE, Том 1, Номер 9 Страницы 75-78
6. Sadikovna, PhD Raximova Xurshidaxon. "Stages of pedagogical and psychological rehabilitation of children with cochlear implants with hearing impairments." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 192-198